

Baxtiniso Rustamova

Jizzax politexnika instituti 3-bosqich talabasi

Nodira Burxonova

Jizzax politexnika instituti 3-bosqich talabasi

Shaxlo Hoshimova

Jizzax politexnika instituti assistenti

UDK-633.34

**JIZZAX VILOYATI SHAROITIDA SOYA MAHSULOTINI YETISHTIRISH
TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualliflar tomonidan soya o'simligini yetishtirish hamda Respublikamizda joylashgan hududlar sharoitidan kelib chiqqan holda soya mahsulotini ekish, parvarishlash va uning yer unumdoorligida ahamiyatini oshirish hamda, Jizzax viloyati sharoitida soya mahsulotini yetishtirish bo'yicha takliflar bayon etilgan. Bundan tashqari soyadan narxi past bo'lgan mahsulotlarga qaraganda yetishtirish natijalarining mahsulotligi to'g'risida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: dukkakli o'simlik, soya tarkibi, soya uni, takroriy ekin, agrofizik, agrokimyoviy jarayonlar.

Аннотация: В данной статье авторы представили предложения по выращиванию сои и условиям регионов, расположенных на территории нашей Республики, посадке и уходу за соей, повышению их значения в плодородии почвы, а также выращиванию сои в условиях Джизакской области. Кроме того, были высказаны мнения и комментарии по поводу продуктивности производства сои по сравнению с продукцией с более низкой ценой.


Ключевые слова: зернобобовое растение, состав сои, соевый шрот, повторный урожай, агрофизические, агрехимические процессы.

Annotation: In this article, the authors presented proposals for growing soybeans and the conditions of the regions located on the territory of our Republic, planting and caring for soybeans, increasing their importance in soil fertility, as well as growing soybeans in the conditions of the Jizzakh region. In addition, opinions and comments were expressed regarding the productivity of soybean production compared to products with a lower price.

Key words: leguminous plant, soybean composition, soybean meal, repeated harvest, agrophysical, agrochemical processes.

Bugun mamlakatimizda har bir sohada bo'lgani kabi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishslash bo'yicha ham turli ilmiy izlanishlar amalga keng oshirilib kelinmoqda. Mahsulotlarni qayta ishslash orqali iqtisodiy samaradorligimizni yanada yaxshilash yalpi ichki mahsulotlarini tovarlilik hususiyatlarini ham kengaytirishga katta e'tibor berilib kelinmoqda. Respublikamizda dehqonchilik madaniyatini yuksaltirish fan texnika yutuqlari va ilg'or tajribasini ishlab chiqarishga keng joriy qilish evaziga ekinlarning hosildorligini oshirish, uning sifatini yaxshilash, ayniqsa mamlakatimizda don mustaqilligini ta'minlash ustida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublika aholisini oziq-ovqat, mahsulotlari ichida don mahsulotlari bilan to'la ta'minlash vazifasini bajarish muhim ahamiyatga molik vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda soya moyli ekin maydonlarining kengaytirilishi va ulardan tayyorlanadigan mahsulotlarning ko‘payishi aholining yog‘-moy mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirish hamda chorvachilikni izchil rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida o‘simlik oqsilini ishlab chiqish va ta‘minlash eng katta muammolardan bir bo‘lib hisoblanmoqda. Tadqiqodchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, inson bir sutkada iste’mol qiladigan ovqat mahsulotlari kaloriyasining 12 foizini yoki 90-100 grammmini oqsil tashkil etishi kerak ekan. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatgich 90-95 grammga yetib, taraqqiy etib kelinayotgan mamlakatlarda esa 20-25 grammga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, o‘simlik oqsiliga bo‘lgan talab juda katta, yer yuzi bo‘yicha o‘simlik oqsili ishlab chiqarish talabga nisbatan 4 marta kamdir. O‘simliklar qishloq xo‘jaligining ajralmas bir qismi bo‘lib, xalq xo‘jaligida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘simliklardan insonlar uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlari olinadi. Bu ko‘rsatgich orqali mamlakat aholisining farovonligi haqida fikr yuritish mumkin. Bundan tashqari o‘simliklar sanoat uchun xomashyo manbai hisoblanadi. O‘simliklar, hayvonlar va parrandalar chiqindilari mahalliy o‘g‘it bo‘lib, yer unumdorligini oshirishda beqiyos o‘rin tutadi. Shu boisdan bu organizmlarni asosiy vazifasi seleksiya mahsulotlarini ko‘paytirish evaziga xalqning oziq-ovqat, sanoatni esa xomashyo bilan taminlashga yordam beradi[1].



1-rasm

Hozirgi kunda yer shari aholisi 7 milliarddan oshdi. Bu miqdordagi kishini o‘simlik oqsili bilan ta‘minlash uchun hozirgi paytda ishlab chiqilayotgan oqsilga qaraganda 20 marta ko‘p oqsil tayyorlash kerak. Oqsilga talab to‘xtovsiz o‘sishi natijasida jahon bozorida uning bahosi ortib bormoqda. Shuning uchun ham o‘simlik va hayvon oqsilini yetishtirish va kishilarni ta‘minlash asosiy masala bo‘lib, oqsil eng muhim strategik mahsulotga aylanib bormoqda. Bu muammoni hal qilishning asosiy yo‘li oqsilga boy o‘simliklarni, shu jumladan, soyani keng maydonlarga ekilishini joriy qilish va almashlab ekish strukturasiga kiritish zarur. Hozirgi kunda AQSH da 100 dan ortiq soya navi ekilmoqda. Bu navlar ichida mahsuldoiligi yuqori, jumladan, tarkibida 55 foiz oqsil saqlaydiganlari ham bor. Seleksionerlar qurg‘oqchilikka chidamli, turli tuproq sharoitlarida o‘sa oladigan, gerbitsid va pestitsidlarga moslashgan. tezpishar tarkibida oqsil va moy miqdori yuqori bo‘lgan mahsulotga talab yuqori bo‘lmoqda. Dukkakli o‘simlik hisoblangan soya barcha qishloq xo‘jaligi ekinlari - kuzgi g‘alla, g‘o‘za, makkajo‘xori, sabzavotlar va boshqa ekinlar uchun eng yaxshi o‘tmishdosh ekin hisoblanadi. Soya oqsilga boy qimmatbaho o‘simlik. Qimmatliligi shundan iboratki, soya doni tarkibida 35 foizdan 48 foizgacha oqsil, 22-23% qimmatli yog‘ saqlaydi. Shu sababli ilmiy maqola mavzusini soya o‘simligi ustida olib bordik[2].

Soya yer sharida keng tarqalgan qadimiy ekinlardan hisoblanadi. Olimlarning fikiga ko‘ra, soyaning vatani Osiyoning janubiy-sharqiy hududlari hisoblanadi. Sharq mamlakatlarida soya qadimdan oziq-ovqat ekini sifatida ekib kelingan. Soya Xitoyda bundan 6 ming yillar muqaddam ham ekilgan. Hindiston soyaning 10 dan ortiq turi keng tarqalgan. Soya juda qadimiy bo‘lib, Gang daryosi atrofidagi yerlarga ekilgan. Tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, Yaponiya, Koreya, Vietnam, Indoneziya kabi mamlakatlarda soyaning yovvoyi turlari uchramaydi, demak bu mamlakatlarga madaniylashgan soya savdo-sotiq natijasida tarqalgan Soya hozirgi kunda deyarli barcha Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Shveytsariya Shvetsiya, Ruminiya, Ispaniya, Belgiya, Portugaliya, Italiya kabi mamlakatlarda tabiiy iqlim sharoitlari hisobga olingan holda ekilmoqda. Soya maydonlari bu mamlakatlarda yildan-yilga ko‘payishiga qaramasdan G‘arbiy Yevropa mamlakatlari juda ko‘p miqdorda soya kunjarasi, soya uni, soya moyini hozircha Braziliya, AQSH va Kanada mamlakatlaridan sotib olmoqdalar[3].

Rossiyada soyaning tarqalishida mashhur agronom I. Ye Ovsyanskiyning xizmati juda katta bo‘lgan. Soya navlarining yuqori hosildorligining muhim omillaridan biri o‘simglikning pastki qismlarini to‘liq yorug‘lik bilan ta’minlashdir. Olimlarning fikricha, soya oddiy qatorlarda ekilgan pastki bo‘g‘inlardagi barglar erta sarg‘ayadi va tushadi. Ammo soya keng qatorlarga ekilganida, bu bo‘g‘indagi barglar saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1-Panjiev A., Ubaydullaev SH, Erkaev N “Soya” Qarshi' 2006

2-Гофман А.В.-Проблема производства сои в Ставропольском крае.- Сб тр.Ст.ГАУ, 2004,С. 129-131

3- <https://www.researchgate.net>